

“FOTIMA VA ZUHRA” ROMANIDA PERSONAJLAR OBRAZINING GAVDALANTIRILISHI

Nurqobilova Shahnoza¹

Eshnayeva Gulnoza²

KEYWORDS

roman, ayol xarakteri, obraz,
ruhiyat, portret, konflikt, tasvir.

ABSTRACT

Adibning “Fotima va Zuhra” romanida personajlar obrazi, asosan, yoshlar, xotin-qizlar obrazi tahlilga tortilib, yoshlar muammosi sanalgan oila, tarbiya masalalari, o'qishga kirishdagi korrupsiya, givohvandlik balosi kabi ma'naviyatimizni yemirib keluvchi illatlar xususida so'z boradi.

Xususan, O'lmas Umarbekov asarlarida badiiy qahramonlar va personajlar obrazi, ularning o'rni va ahamiyati qay darajadiligini aniqlash, portret tasviri orqali personajlar ruhiyatining aks ettirilishini ko'rsatish, shu bilan birgalikda, ayol xarakteri ifodalanishi masalalari muhim muammo sifatida qo'yiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.16576473**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. Mustaqillik sharofati va yangi davrning boshlanishi, o'z navbatida, o'zbek kitobxonining milliy va jahon adabiyoti namoyandalari ijodiyoti bilan yanada yaqindan tanishuviga zamin hozirladi. O'zbek zamonaviy adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri, “O'zbekiston xalq yozuvchisi” O'lmas Umarbekov ijodini o'rganish, uni tadqiq etish, uning adib sifatidagi, shu o'rinda asarlarida qahramonlar obrazining gavdalantirilishi, hikoya va qissalari tahlili ishimizning dolzarbligini tashkil etadi.

Nafsilamrini aytganda, O'lmas Umarbekov asarlari, asosan, uning dramaturgiyasi yuzasidan juda ko'plab ilmiy asarlarni topish mumkin. Biroq O'lmas Umarbekov ijodi, nasri, janrlar taraqqiyoti yuzasidan yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Badiiy qahramonlar xoh yosh, xoh keksa kishi bo'lsin, barchani birday o'ziga jalb qiladi. Ushbu dissertatsiyada yoshlar, xotin-qizlar obrazi, ayol xarakterining ifodalanishi kabi bir qator jihatlariga ham to'xtalib o'tilgan. Bilamizki, adabiyotda har qanday mavzu ko'tarilmasin, barchasida doimo ayol obrazi muhim o'rin tutadi. Ayollarning jamiyatdagi mavqeyi har doim ham yaxshi bo'lgan emas. Turli davrda turlicha qarashlarning guvohi bo'lish

mumkin. Birgina johiliya davrini oladigan bo'lsak bunda qiz farzandlar tug'lsa, tiriklayin o'ldirib yuborilgani achchiq haqiqatdir. Bugungi kunda ham ayol haq-huquqlari toptalib, zo'ravonlikka uchrayotgani hech kimga sir emas.

Aynan mana shunday masalalar yechimi yuzasidan ham mazkur dissertatsiya o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. O'lmas Umarbekov asarlarida ayollar, qizlar obrazi o'zining mardlik, jonkuyarlik, tashabbuskorlik jihatlarini yuqori darajada ekanligi bilan boshqa qahramonlardan ajralib turadi. Birgina "Fotima va Zuhra" romani misolida oladigan bo'lsak, asosiy qahramonlardan biri Zuhra o'zining jasurligi, g'ayratliligi bilan ajralib turadi. Asarni o'qir ekansiz, beixtiyor Zuhraga achinasiz, unga hamdard, hamsuhbat bo'lgingiz keladi. U hali yosh, murg'ak jon bo'lsa-da, opasi Fotimaning qotillaridan o'ch olish maqsadida ularning izidan tushishi o'sha davrda qonunning kuchi mavjud emasligidan dalolat beradi.

Yoki bundan mustasno holda Davlat - Xalq - Ichki ishlar organlari kesimida ko'radigan bo'lsak ham, avvalo, jamiyatga insonlar ishonchi yo'qolganini asar bosh qahramoni Aliyev ham bot-bot asar davomida ta'kidlab o'tadi. Bu esa milliy ma'naviyatimizdagi eng og'riqli nuqtalardan sanaladi. Shu asosda asarning badiiy qiymati oradan vaqt o'tsa ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini anglaymiz. O'lmas Umarbekov mana shunday jamiyatning chirkin jihatlarini asarda ochib berishga harakat qiladi. Bugungi kunda ham yoshlarning yo'ldan adashib turli nopok yo'llarga kirib ketayotganligi sir emas.

Jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik balosi shunchalar avj olganki, unga qarshi kurashgan insonni shu zahotiy o'z domiga tortib oladi. Natijada insonlar "och qornim - tinch qulog'im" qabilida ish ko'rishni afzal ko'radilar. Masalan, mayor Aliyev xotinini mashinaga solib, bog'ga olib kelishganida hech kim unga yordam bermagani, shu atrofda sayr qilib yurgan odamlarning loqaydligi, ularning barchasi "qorin g'ami"da oshxonada yurganligidan g'azablanadi. Qonun posbonlarining o'zi ham hattoki, ushbu qonunga xizmat qila turib, yana o'zlari unga ishonmasligi kishini qattiq o'yg'a toldiradi, ta'bini xira qiladi.

Romanda fe'l-atvori turli-tuman personajlar obrazi gavdalantirilgan. Shu o'rinda personaj so'ziga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov "Adabiyotshunoslik lug'ati" da personaj terminiga quyidagicha ta'rif beradi: "Personaj (lot. person- shaxs, teatr maskasi) - badiiy adabiyotda inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq sub'ekti. Personaj termini qahramon, ishtirok etuvchi (dramatik asarda), xarakter terminlari bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qilib, ma'no jihatidan neytral bo'lgani bois bu qatorda dominanta vazifasini o'taydi. Ya'ni personaj termini ularning o'rnida bimalol qo'llanilishi mumkin, biroq hamma personajlarga nisbatan ham qahramon, ishtirok etuvchi yoki xarakter terminini ishlatib bo'lmaydi. Zero, ular o'zining asarda tutgan mavqei, tashiyotgan g'oyaviy-badiiy yukning salmog'i, voqealardagi ishtiroki, umumlashtirish

darajasi kabi qator jihatlardan farqlanadi, darajalanadi”.²

Asarda Hamidulla obrazi 23 yoshli navqiron, lekin juda erkatoiy, taniq yigit qilib tasvirlangan. Dono xalqimiz “Bola boshidan ma’lum” deganlaridek, Hamidulla ham bolalikdan ham ota-onasiga, singillariga jonkuyar emasdi. Faqat o’z halovati uchun yashaydigan farzand edi. Abdulla muallimning oilasiga tushayotgan kulfatlari aslida o’z o’g’li, jigargo’shasi Hamidulla ortidan kelgandi. Biroq uning ham bunday noto’g’ri yo’lga kirib ketishiga faqat o’zinigina aybdor qilish har holda katta xato bo’lar edi. Chunonchi, Abdulla muallimning ayoli Sabura hayotligida og’ir kasallikka yo’liqib, vaqtida farzandlar tarbiyasiga e’tibor berolmay qoladi. Ota esa turmush, oila boqish kabi mas’uliyatli ishlar bilan andarmon bo’ladi. Shuning hisobiga o’g’li Hamidullaning tarbiyasida biroz bo’shliq paydo bo’ladi. Ulg’aygach uni armiyaga jo’natishadi. Harbiy xizmatni o’tab kelgan norg’uldek yigit otaning qo’l ostiga kirib, uning beliga mador, ko’ziga nur bo’lish o’miga bir to’da uyushgan jinoyatchilar bilan birgalikda turli qing’ir ishlar bilan band bo’ladi. “Do’ldan qochib yomg’irga tutildi” deganlaridek Hamidulla ham harbiy xizmatda bir ajal dog’usidan qutulib, ikkinchi bir o’p’qonga Teshaboy Sultonov “qarmog’”iga ilinadi. Bu tuzoqqa tushganlar esa shu paytgacha aslo omonlik topmagan.

Bu o’rinda bola tarbiyasida nafaqat oilaning ,qolaversa, jamiyatning, ijtimoiy muhitning ham o’mi beqiyos ekanligini anglash qiyin emas. Oila masalasi ham bu asarda dolzarb mavzu sifatida ko’tarilgan. Aslida hech bir inson onadan jinoyatchi bo’lib tug’ilmaydi, vaholanki, uning kelajakda qanday inson bo’lib shakllanishida yon-atrofdagilaming ta’siri katta rol o’ynaydi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ham farzand tarbiyasiga e’tiborli bo’lish o’z dolzarbligini saqlab qolgan.

Shu asosda Hamidulla ham adashgan yoshlaming tipik timsoli desak adashmagan bo’lamiz.

O’lmas Umarbekov asarlarida yoshlar obrazi asosiy o’rinda turadi. Yoshlar jamiyatning tayanchi, asosiy kuchi sanaladi. Chunki qaysi faoliyat turini qaramaylik, ularning barchasida yoshlar yetakchi va hal qiluvchi asosiy kuchni egallaydi. Ularning orzu -umidlari, his-tuyg’ulari kechinmalari har qanday badiiy asarda o’z ahamiyatini yo’qotmaydi. Adib ijodida badiiy qahramonlar, personajlar obrazi hamda uning estetik ideal muammolarini tadqiqotimiz uchun mavzu qilib olarkanmiz, uning muhimligi ayniqsa, hozirgi hayotimiz uchun dolzarblik kasb etadi.

Yozuvchi ijodini o’rganish uni yosh avlodga yaqindan tanishtirish maqsadida uning asarlari asosida turli kinofilm va spektakllar yaratilgan. Adib ijodiy faoliyati bo’yicha adabiyotshunoslar turli tadqiqotlar olib borishgan. Biz tanlagan mavzuning boshqa tadqiqotlardan farqli tomoni shundaki, yozuvchi asarlarida qahramonlar obraziga turli nuqtalardan turib qaraladi, ularning tarbiyaviy-estetik jihatdan shakllangan qiyofasi

² D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug’ati, Toshkent, Akademnashr, 2013-yil , 223-bet

ochib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmuni, uni rivojlantirishda O'lmas Umarbekov asarlarining o'rni hamda ahamiyati haqida so'z boradi. Mavzuni yoritishda ilmiy-tanqidiy, mantiqiy, qiyosiy-tahliliy usullardan foydalanildi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: O'lmas Umarbekov asarlari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarda S.Mirvaliyev, N.Odilova, G.Abdullayeva, S.Tursunov, Rahmatullayeva D. tomonidan yozilgan tahlillar muhim ahamiyatga ega.

Asarning yutug'i shundaki, ham nasr, ham drama shaklida kitobxon va tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egallaganidir. Nasriy asarlarning bir janrdan ikkinchi janrga ko'chishi jarayoni har qanday asarga ham mos kelavermaydi. Yozuvchining nafaqat mana shu roman, balki butun asarlarining ijod mahorati xususida Nazira Odilova o'zining "Dramaturgiya asoslari" qo'llanmasida shunday fikrlarni bildiradi: "Yozuvchi O'lmas Umarbekov ijodidagi qo'shqanotlilik - ham nasr, ham dramaturgiyadagi orttirgan tajribasi va mahorati hamisha bir-birini to'ldirishga, boyitishga xizmat qilgan. Shu tarzda uning ijodiga xos butun bir yaxlit ijodiy uslub ham yuzaga kelgan".³ Bu kamdan kam yozuvchiga nasib etadigan faxrli ta'rifdir desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Masalaning yana bir e'tiborga molik jihati shundaki, o'sha davrda giyohvandlikka qarshi qaratilgan chora-tadbirlar qo'llanilayotgan bir paytda yoshlar orasida bangilikka duchor bo'lish holatlari yildan-yilga ko'payayotganligi, buning natijasida esa jinoiy voqealar sodir bo'lishi, afsuski, ortayotganligini ko'rish mumkin. Qolaversa, bu asarda yig'indi obrazlar orqali giyohvandlikning ayanchli fojealarga olib kelinishi tasvirlanadi. Chunki hozirda ham yoshlar orasida psixotrop shakldagi giyohvand moddalardan foydalanish holatlari tez-tez uchrab turibdi. Bunga qarshi profilaktika inspektorlari tomonidan turli-tuman chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, vaholanki hali hanuz bu illatni tag tomiri bilan butunlay sug'urib tashlashga erisholganicha yo'q. Zero, bu dunyoda abadiy ezgulik va yovuzlik kurashi davom etar ekan, demak, hali bu kurash uzoq davom etadi.

Yozuvchining nafaqat ushbu asarida, balki boshqa asarlarida gavdalandirilgan qahramonlar jozibasi haqida filologiya fanlari nomzodi, prof. Sobir Mirvaliyev, Nazira Odilovalar shunday fikrlarni keltirib o'tadi: "U yaratgan qahramonlar na mansab, na lavozimi bilan emas, balki oddiyligi, kamtarligi, chin insonligi bilan hayot haqiqatiga fayz bag'ishlaydi, o'quvchini o'ziga maftun etadi, ishontiradi, ergashtiradi. Mana shu "ergashtira olish" xususiyati O'lmas Umarbekov ijodining tarbiyaviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qimmatini tashkil etadi".⁴

Tadqiqot va natijalar. Tadqiqot davomida O'lmas Umarbekov ijodida muhim o'rin tutgan "Fotima va Zuhra" romanida personajlar obrazining gavdalandirilishi, obrazlarning badiiy mahorati xususida ma'lumotlar o'rganildi. Asosiy e'tibor asarda keltirilgan bir qator personajlar va ularning bugungi kundagi roli haqida ham so'z bordi.

³ Одилова Н. Драмматургия асослари, укув кулланма, Тошкент, 2008, 80-бет

⁴ Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Т.: Шарц, 2002, 443-бет

Tahlil natijalariga ko'ra, asarning janriy merosi kam o'rganilganligi, xususan, "Fotima va Zuhra" romaniga oid faqat dramatik ma'lumotlar ko'pligi, nasriy ma'lumotlar kam ochiqqlanganligi aniqlandi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar va qiyosiy tahlillar orqali olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ushbu roman o'qishlilikini, dramatik ko'rinishda, ya'ni spektakl va kinofilmlar tarzida bo'lsa ham yana bugungi kunimizga tadbiq etmog'imiz, yoddan ko'tarilgan qadriyatlarimizni qayta tiklamog'imiz lozim.

Xulosa. Ushbu maqolada nafaqat roman asnosida obraz va personajlar gavdalanitirilishiga urg'u berilgan, balki yozuvchining badiiy mahorati, so'z boyligi, hayotga qarashlari mujassamlashgan. Shu bilan birgalikda, roman asosida yaratilgan spektakllar yuzasidan ham qilingan "topilma"lar haqida ham so'z boradi. Mustaqilligimizdan oldin mamlakatimizda avj olgan qator illatlarni bartaraf qilinishi bilan bog'liq achchiq haqiqatlar ochiq -oydin qalamga olingan. Jumladan, givohvandlik balosi bugungi kunda ham mavjud ekanligi kishini yanada sergak torttiradi. Biz bu illatdan butunlay qutulganmiz deb aslo ayta olmaymiz. Boisi ushbu ofat biroz shakli va nomi o'zgargan holda insonlarni, xususan, yoshlarni zaharlab kelmoqda. Biz bu ajalni bugungi kunda yangicha nomi bilan ya'ni psixotropik moddalar deya ataymiz.

Adibning ushbu romani insonlarni hushyorlikka chorlaydi, ogohlikka da'vat etadi. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" deganlaridek, asar qahramonlaridan biri Hamidulla armiyadan keladi, lekin u bilan hech kimni ishi bo'lmaydi. Farzandlar tarbiyasi izdan chiqqanligi, vaqtida berilmagan tarbiya keyinchalik bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Avvalo, Hamidulla o'zi armiyadan nasha chekishni o'rganib keladi. Yoshligida ham erinchoq bo'lgan qahramonimiz ulg'aygach bu odatini tark etmaydi. Natijada ona o'z kasali bilan o'zi ovora, ota esa uni da'volash hamda uy-ro'zg'or ta'minoti bilan band bo'lib vaqtida bolalariga e'tibor berolmay qolgan. Mana shunday bir og'ir pallada mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shni yordamga kelishi kerak emasmi aslida? Butun jamiyat o'zi bilan o'zi ovora bo'lib yonidagi bilan ishi yo'q. O'z qobig'iga o'zi o'ralib olgan. Qorni to'ysa bo'ldi boshqa muammolar uni qiziqtirmaydi.

Asarda yoshlar muammosi sanalgan tarbiya masalalari, o'qishga kirishdagi korrupsiya, givohvandlik balosi kabi illatlar bugungi kunda ham ma'naviyatimizni yemirib kelmoqda. Yoshlar tarbiyasining izdan chiqishiga, ularni jar yoqasiga olib kelinishiga sabab bodadigan eng og'riqli nuqtalardan biri bo'lib kelmoqda.

Darhaqiqat, inson koinot gultojidir. U bu zamindagi jonotlar orasida eng aqlli, eng sabrli mavjudot ekanligi hech birimizga sir emas. Ushbu dunyoyi dunda yashar ekanmiz, faqat insongina boshidan ne-ne ko'rguliklarni kechiradi, faqat insongina bu olam yukini ko'tara oladi. Unga chidash beradi. Adib asarlari ham avvalo, mana shunday yuksak tuyg'ulami tarannum etishi bilan farqlanadi.

O'lmas Umarbekov ijodi bugungi kunda ham sevib mutolaa qilinishining asosiy sabablaridan bittasi asarda yoshlar obrazi, ulaming his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, muammolarining haqqoniy aks ettirilishidadir. Tabiiyki, bunday asarlar allaqachon o'z o'quvchisini topib ulguradi. Adib asarlarida ko'zda tutilgan bir qator masalalar hali hamon

o'z yechimini to'la-to'kis topmaganligi bilan ahamiyatlidir. O'lmas Umarbekov asarlari o'zining badiiy qimmatini bilan hali yana uzoq yillar kishilar ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Т.: Шарк, 2002
2. Умарбеков У. Танланган асарлар I жилд, Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984
3. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug'ati, Toshkent, Akademnashr, 2013-yil
4. Рахматуллаева Д. Улмас Умарбеков ва театр, укув кулланмаси, -Тошкент: Санъат, 2005
5. Турсунов С. Хаёт барибир ширин. Макола. Ўзбекистан адабиёти ва санъати, 1995-йил 7-июл
6. Одилова Н. Драматургия асослари, укув кулланма, Тошкент, 2008
7. Вохидов Е. Шаркий киргок - Т.: Sharq, 2014
8. Мирвалиев С. Улмас Умарбеков, "Севгим -севгилим"дан "Кизимдан мактублар"гача, Т.: Шарк, 2004